

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TRAINING OF 15-17-YEAR- OLD FOOTBALL PLAYERS

**A.A. Komilov**

**Bukhara State Pedagogical Institute**

**2nd stage graduate student**

**Bukhara city, Uzbekistan**

**Abstract:** this article describes the urgent tasks of improving the all-round training of football players, the specific features of training athletes, the development of flexibility and quickness, training and improvement of football players, and the requirements for organizing training.

**Key words:** current, flexibility, strength, trainer, organism, game, academy, club, tactic, quality, mental, moral, reserve, standard.

So'ngi yillarda mamalakatimizda iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha trener va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib o'zbek futbolini xalqaro maydonlarda olib chiqishda hukumat tomonidan keng ko'lamli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Tajribali mutaxassislar, olimlar, yosh tadqiqotchilar tomonidan sport mashg'ulotlarini tashkil etishning xalqaro andozalarini yetakchi murabbiylarning ish tajribalari bilan hozirgi zamon talablari asosidagi faoliyatlari izchillik bilan o'rganilmoqda. Yangidan tashkil etilayotgan maxsus futbol maktablari, akademiyalar va sport klublarining faoliyatlari esa jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetakchi muttaxassis olimlarning diqqat markazida turibdi.

Amaliy tadbirlarni ta'kidlashning boisi shundanki, amaliy va nazariy jihatdan tashkil qilish asosida faoliyat ko'rsatishni ko'pincha ilmiy xodimlar hamda tajribali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib boriladi. Chunonchi jismoniy tarbiya va sportni, sohani rivojlantirishda T.S.O'smonxo'jaev,

R.Salomov, J.Nurshin, F.Kerimov, T.X.Xoldorov, A.T.Sodiqov, X.A.Miliev, B.A.Buriboev, F.Axmedov, O.Ý.Muqimov (Jizzax), Q.Rafiev, A.X.G'ulomov, Gapparov Z.G, Iseev SH.T, Iseev SH.T, Kachani L, Gorskiy L, Koshbaxtiyev I.A, Kurbanov O.A, Nurimov R.I va boshqa bir qator olimlarimizning uslubiy, metodik, ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki bugungi kundagi shiddatli va tezkor futbolda, sportchilarni har tomonlama tayyorgarligini oshirib borish yetakchi mutaxassis, olimlar oldida turgan muhim va kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifadir.

R.N.Poliyani fikriga ko'ra 8-9 yoshli bolalarda tezkor-kuch va chaqqonlik sifatlarining o'sishi kuzatiladi. Tezkorlik va egiluvchanlik qobiliyati esa biroz susayadi. 14-15 yoshda egiluvchanlik va tezkorlik kuchini rivojlantirishga oid hajmini ko'tarish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrni V.F.Bashkirov, V.P.Filinlar ham qullab-quvvatlaganlar. I.Arshavskiy, Ya.V.Vaynbaum, A.Tujalavskiy va boshqalar. Yosh sportchilarning funktsional tayyorgarligini ilmiy tekshirish nitajasida jismoniy mashqlar organizmning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashi tasdiqlangan.

V.S.Daxnovenkiy va boshqalar tezkor kuch va maxsus chidamkorlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar bilan uzoq muddat mobaynida muntazam shug'ullanish natijasida kurashchilarning texnik-taktik mahorati hamda boshqa qobiliyatlari qanchalik sezilarli darajada shakllanish mumkinligini tadqiqot asosida isbot qilib bergan. Kuch va tezkorlikni chidamkorligi sportchilarni yosh sportchilarni juda extiyotkorlik bilan rivojlantirish zarurligi katta yuklamaga ega mashqlar bilan bu sifatlarni zo'rma-zo'raki o'stirishga intilish salbiy oqibatlariga olib kelish ehtimolidan xoli emasligi alohida ta'kidlab o'tilgan [A.R.Akromov, M.A.Godip, SH.T.Iseev, G.M.Sergeev, R.I.Nurimova, S.A.Savin va boshqalar]. Maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalalari ko'pgina tadqiqotchilar ishlarida va ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan [Z.G.Gapparov, D.Jarnin, V.I.Samakov, G.M.Sergeev va boshqalar].

Jismoniy tarbiya va sportning ilmiy va ijtimoiy pedagogik xususiyatlari hamda uning tarbiyaviy mohiyatlarini yurtimiz olimlari tomonidan ijobiy ravishda mukammal asoslab berilgan. Biroq shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki mamlakatimizda yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash masalasi bosqichma-bosqich xorijiy tajribalar asosida yo'lga qo'yilmoqda.

Futbolchilarni o'rgatish va takomillashtirishning asosiy shakli mashg'ulot hisoblanadi. Futbol – jamoaviy o'yin, shuning uchun o'quv mashg'ulotlari asosan jamoaviydir. Shuning uchun mashg'ulotga qo'yiladigan talablarga rioya qilish qat'iy talabdir. Bunda:

- mashg'ulotda qo'yilgan vazifa bajarilishi lozim;
- mashg'ulot intizom va mehnatsevarlikni tarbiyalashi lozim;
- mashg'ulotni shunday rejalashtirish kerakki, futbolchilar harakat ko'nikmalari va sifatlarini ongli ravishda egallasinlar;
- mashg'ulot yagona o'quv- mashg'ulot jarayonining bo'limi bo'lishi kerak;

*Mashg'ulotning tuzulishi uch qisimdan iborat:*

Mashg'ulot qisimlarining vazifalari:

- tayyorlov qism – organizmni asosiy ishga tayyorlash;
- asosiy qism texnik usullarni o'rgatish va takomillashtirishga, taktik harakatlarga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, ruhiy tayyorgarlikni va ahloqiy va irodaviy sifatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak;
- yakunlovchi qism organizmni mashg'ulotdan oldingi holatiga keltirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. O'quv qo'llanma. T.: O'zDJTI, 2011 y. 37 b.

Акрамов Р.А. Талипджанов А.И. Подготовка футболистов вщсокой квалификации. Учебное пособие. Ташкент, 1994 8. Акрамов Р.А. Футбольные университеты XVII Кубка мира, Ташкент, УзГИФК, 2004. 9. Акрамов Р. А. Футбол Ташкент 2006 10. Исеев Ш.Т. Футбол жомоаларининг ғалаба қозонишида футболчиларнинг стандарт вазиятларидан самарали фойдаланиш. "Педагогик таълим". Ж. 2, 2003. 11. Исеев Ш.Т. Анализ атакующих действий футболистов восокой квалификации. Ж. Фан-Спортга

- 1, 2004, 12. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов вщсокой квалификации. Ташкент, Гротекс, 1998
11. Исеев Ш.Т. Анализ атакующих действий футболистов восокой квалификации. Ж. Фан-Спортга 1, 2004,
12. ISEYEV Sh.T. FUTBOLCHILARNI YILLIK SIKLDA TAYYORLASHNIREJALASHTIRISH. «ITA-PRESS» 2014. 460 b.
13. <https://cyberleninka.ru/article/n/malakali-futbolchilarning-jismoniy-tayyorgarligini-rivojlantirish/viewer>.
14. <https://azkurs.org/nizomiy-nomidagi-toshkent-davlat-pedagogika-universiteti-v3.html?page=4>
15. Varlamova L. et al. Fuzzy logic traffic management model //InterConf. – 2020.
16. Muazzam A. Image constrict by the wavelet shrink //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 1 S4. – С. 862-864.
17. Зайнидинов Х. Н., Артикова М. А., Фазлиддинович Д. Сплайн-метод анализа и обработки сейсмических сигналов //Автоматика и программная инженерия. – 2017. – №. 1 (19). – С. 54-57
18. Sadullaeva S. A. et al. Analysis of Detection and segmentation of Uterine fibroids between uzbek women //NeuroQuantology. – 2022. – Т. 20. – №. 10. – С. 83.
19. Muazzam A. Image squeezing by the wavelet squeezing //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 8. – №. 11. – С. 3705-3707.
20. Артиков Т. У., Ибрагимов Р. С., Артиков М. Т. Развитие сейсмического процесса в очаговых зонах сильных землетрясений Узбекистана и долгосрочный прогноз сейсмической активизации //Геология и минеральные ресурсы (Ташкент). – 2009. – №. 1. – С. 23.